

VIRTUAL OLAMDA AXBOROT ISTE'MOLI MADANYATI

Shermatova Xilola Mirzayevna

FarDU katta o'qituvchisi.

Aliyeva Gulbodombegim Egamberdi qizi

FarDU talaba.

Annotatsiya. Hozirgi zamон borliq va yo'qlikdan tashqari virtual olam ham mavjud. Axborot iste'molining xilma-xil va tezkorligi bilan tez sur'atda rivojlanib bormoqda. Bu davrda yosh avlodni tarbiyalash, ularni virtual olamni zararli oqimlardan asrash va tog'ri yo'naltirish ulkan mas'uliyatni talab etadi. Ushbu maqolada kibernetika yani kibermakonda axborotni qabul qilish undan to'g'ri foydalanish haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit sozlar: kibernetika, kompyuter, axborot, talim, tarbiya, virtual olam, web saytlar, tarmoqlar, kiber hujumlar.

Kibernetika (yunoncha-boshqarish sa'nati) axborotni qabul qilish uni qayta ishslash hamda undan turli jarayonlarni boshqarishda foydalanish bilan shug'ullanadigan fan ijtimoiy nuqtai-nazardan kibermakon deganda kompyuter tarmoqlar orqali bir-biri bilan bog'langan va bir vaqtning o'zida turli hududlarda har qanday mavjud kompyuterning grafik sifatidagi ma'lumotlariga o'ralashib qolgan kishilarning jamoasi tushiniladi. Radio, televideniye, telefon, internet kabi axborot tarmoqlari orqali uzatilayotgan ma'lumotlar turli ko'rinishga ega. Ular orasida matn, surat, video, turli belgilar tizimi va boshqalar mavjud. Kinematografiya bugungi kunda ma'lumot uzatishning eng intensiv usuliga aylandi. Kino nafaqat ma'lumot uzatish, balki tarbiyalash, mafkura, dunyoqarash va e'tiqodni shakllantirish vazifasini ham bajarmoqda. Internet fan-texnika taraqqiyoti natijasi, madaniyat evolyusiyasining hosilasi hisoblanadi. Bugungi kunda hayotimizni internetsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Qolaversa, yoshlар hayotida global tarmoqning o'rni tobora oshib bormoqda. Internet dunyoning turli nuqtalarida yashovchi odamlarning o'zaro muloqotini hamda axborot almashinuvini mukammal darajada osonlashtirdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha internetdan eng ko'p foydalanuvchilar aynan 21 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlар hisoblanar ekan.

Bugungi kunda ilmiy manbalarda tez-tez "axborot iste'moli madaniyati" so'zi ko'p qo'llanayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Unga ko'ra, har kim o'zi e'tiqod qiladigan mafkura tarqatuvchisi va targ'ibotchisidir. Hozirgi kunda ekstremistik tashkilotlarning targ'ibot-tashviqotlari kun sayin avj olib bormoqda. "Odnoklassniki", "Facebook", "Instagram", "Twitter", "Vkontakte" kabi bir qancha ijtimoiy tarmoqlarida yot g'oyalarni targ'ib qiluvchi bir qancha guruuhlar mavjudligi fikrimizning yaqqol isboti desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu guruhlarning asl maqsadlari, insonlar uchun aziz bo'lgan tuyg'ular orqali ularning qalblariga turli yo'llar bilan kirib borib, xalq kuchi yordamida hokimiyatni qo'lga kiritish hisoblanadi. Turli missioner tashkilotlar cinematografiya orqali har xil ko'rinishda o'z g'oyalarni ilgari

surishlari, ochiq-oydin ishora qilish, yashirin, psixologik ta'sir o'tkazish va boshqa yo'llar bilan amalga oshirishlari mumkin. Ming afsuski, bunday manfur kuchlar asosan ilm va ma'rifatdan yiroq, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmagan kishilarni, asosan yoshlarni jalb etishga intilib, ijtimoiy tarmoqlar orqali «jihod», «takfir», «shahidlik», «hijrat» tushunchalarini noto'g'ri talqin etgan holda o'z Vatanlarini tark etishga urinmoqda. Shuningdek, ayrim kimsalar tomonidan maqsadli ravidha islam mohiyatiga zid bo'lган turli xil asossiz axborotlar, manbasi aniq bo'lмаган diniy tusdag'i xabarlar yoki kishilarni vahimaga soluvchi foto va videolavhalar keng targ'ib etilmoqda. Bunda ba'zi yoshlarning axborot vositalari orqali tarqatilayotgan milliy va diniy qadriyatlarimizga zid bo'lган xabarlar, aniq manbasi ko'rsatilmagan, asossiz axborot va ma'lumotlarga ishonib qolishayotgani, mulohaza qilmasdan ko'r - ko'rona qabul qilayotgani undan ham keskin oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda bir necha yirik terrorchi tashkilotlar o'z saflariga faol tarzda ijtimoiy tarmoqlar orqali asosan 17-35 yosh oralig'ida bo'lган kishilarni yollamoqda.

Har bir oilada sevib tomosha qilinadigan turli xil g'arb va boshqa davlatlarning seriallarida oilaning do'sti ruhoni barcha muammolarni hal etadigan, oila a'zolarining sir-asrоридан xabardor shaxs sifatida targ'ib etiladi. Yoki hind kinolarida biror-bir dinning sig'inish marosimi (fil, maymun, sigir yoki boshqalar vositasida) ko'rsatiladi va ular xaloskor sifatida talqin etiladi.

Lev Tolstoyning shunday fikri bor: "Har qanday narsaga har tomonlama nazar sol foydasini ham, zararini ham ko'r. Boshqalarning fikrini o'ylab o'tirgandan ko'ra o'z ustingda ko'proq ishla."

Axborotni qabul qiluvchi insonlar o'zi, atrofdagilar, yaqinlari, xalqi, va yurti manfaatlarini himoya qilishi, hamda shunga mos keladigan ma'lumotlarni tanlashni bilishi va tarqatishi lozim. Bu, o'z navbatida, tarbiyaga bog'liq. Bugun yoshlarga "Bu axborotni kim taqdim qilmoqda?", "Nima uchun taqdim qilmoqda?" va "Nima maqsadda taqdim qilmoqda?" degan savollarni o'z-o'ziga berishi, unga asosli javob topishga harakat qilishni o'rgatish kerak bo'ladi. Ana shundagina turli g'oyalari ta'siriga tushib qolish ehtimoli kamayib, taklif etilayotgan ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashishning oldi olinadi. "Axborot tashnaligi"ga barham berilishi mumkin.

Ayni paytda, axborotlashuv jarayoni qo'yidagi bir nechta muammolarni ham keltirib chiqaradi:

Birinchidan, mualliflik yoki intellektual mulk huquqi buzilishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu holat hozirgi kunda internet orqali tarqatilayotgan ma'lumotlarning to'g'ridan-to'g'ri olinishi misolida ko'rinxmoqda. Mualliflar huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar, plagiarismni aniqlash programmalari tabiiy zarurat tufayli vujudga kelgan.

Ikkinchidan, tekshirilmagan, noxolis ma'lumotlarning keng tarqalishi ehtimoli ortadi. Aslida, internet tarmoqlari mualliflardan mas'uliyatni cheklaydi. Shunga muvofiq internet jurnalistikasi rivojlanmoqda.

Uchinchidan, maxfiy va shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy ravishda e'lon qilinishiga olib keladi. Bundan ba'zan moddiy manfaatdorlik yoki ko'zlangan aniq maqsadga erishish, jumladan, biror shaxsni obro'sizlantirish nazarda tutiladi.

To'rtinchidan, din niqobidagi ekstremizm, missionerlik hamda "ommaviy madaniyat" targ'iboti ortadi. Bu esa ma'naviyatga, milliy va diniy qadriyatlargaga, azaliy urf-odat va an'analarga qarshi qaratilgan to'g'ridan-to'g'ri tahdiddir.

Beshinchidan, ma'naviy, milliy qadriyatlargaga putur yetadi. Masofaviy muloqot, faqat hurmatdan iborat munosabat shakli ota-onaga xizmat, yaqinlar diydoriga intilish, hashar, muhtojlarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish kabi qadriyatlarimizga ma'lum darajada ziyon etkazadi. Shu sababdan yurtimizda qadriyatlargaga sadoqat, milliylikka hurmat tuyg'ulari targ'ib qilinadi.

Yuksak axborot texnologiyalarini jamiyat hayotining turli sohalariga joriy etish – davr talabi. Ammo uning ham o'ziga xos jihatlari bor. Jumladan, uning natijasida jismoniy mehnat hajmi keskin qisqaradi. Bu esa ishsizlikning ortishidir. Demak, amaliyotga ilm-fanning eng so'nggi natijalarini joriy etish barobarida yangi ish o'rinalarini yaratish ustida jiddiy bosh qotirish ham muhim hisoblanadi;

-yuksak darajada texnik imoniylatlarga ega bo'lish mehnat, ishlab chiqarish jarayonini osonlashtiradi, va insonlarning aqliy faoliyati uchun keng yo'l ochiladi.

-dunyo xalqlari bilan muloqot almashinuvi osonlashadi va tezlashadi. Jahondagi har qanday istalgan mamlakat kutubxonalarida saqlanayotgan nodir va muhim kitoblardan foydalanish imkoniyatlari yaratiladi;

-madaniyatlararo aloqalar rivojlantiriladi, mustahkamlanadi. Dunyo yaqinlashadi.

Demak, har bir olingan ma'lumotni tekshirib, asosli yoki asossiz ekanini aniqlamay turib, o'sha ma'lumotga qarab ish tutish turli muammo va javobgarliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Chunki bunda xabar tarqatayotgan kishining g'arazli maqsadini amalgaloshirishiga zamin yaratib qo'yiladi.

Shunday ekan, dunyoning turli mintaqa va hududlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ziddiyatli to'qnashuvlarga teran qarash hissini oshirish, har qanday ko'rinishdagi tahdidlarga qarshi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, ayniqsa bu borada kelajagimiz hisoblangan yosh avlodni, bir so'z bilan aytganda har birimiz uchun muqaddas bo'lgan oilamizni din niqobi ostidagi yot g'oyalar ta'siridan asrash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz lozim.

Hozirgi kunga kelib virtual olamda 1 mlrd.dan oshiq internet saytlar mavjud bo'lib, har oyda o'rtacha 201,4 trln. videorolik ko'rib chiqiladi, har kuni 144 mlrd. elektron maktub jo'natiladi. Juhon web-auditoriyasining 45%ini 25 yoshgacha bo'lgan shaxslar tashkil etadi. Mazkur o'smirlarning 68% har kuni kimgadir SMS-xabar jo'natadi, 51% ijtimoiy tarmoqlarga kiradi, 30% elektron pochtadan foydalanadi

O'zbekistonda ham Internet tarmoqlari tizimi tezkorlik bilan rivojlanib, undan foydalanuvchilar safi jadal sur'atlar bilan kengayib bormoqda. So'nggi 10 yilda global tarmoqdan foydalanuvchilarning soni o'n barobarga oshgan. Tarmoqlar orqali axborotni

izlash va uni qabul qilish, hamda uzatishning juda qulay va ommabopligi undan foydalanuvchilar sonining tobora ortib borishini ta'minlab kelmoqda. Mamlakatimizda 2007-yilda internetdan foydalanuvchilarning soni (mobil internet foydalanuvchilari bilan qo'shib hisoblaganda) bir millionni tashkil etgan bo'lsa, 2016 yil yakunida bu ko'rsatkich o'n ikki milliondan oshdi. Internet yoshlar ongi va hissiyotlariga, tafakkur tarziga, xulq - atvorlariga ta'sir ko'rsatishda katta imkoniyatlarga ega.

Bugun axborot iste'molchilarining kattagina qismini o'ziga og'dirib ulgirgan ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar, ko'pincha ma'lum guruhlar yoki foydalanuvchilar tomonidan joylashtirilishi. Bunday axborotlarning shakli, mazmuni, hajmi turlichcha bo'lish bilan birga ko'pincha manba tekshirilmasdan tarmoqqa qoyilmoqda. Adabiyot ixlosmandlaridan biri bundan ancha yillar avval: "Insoniyat yigirmanchi asrga ot minib, gurillab kirib kelgan edi, undan piyoda, boshini egib chiqib ketmoqda", deb yozgan edi. Biz yangi asrning yangi o'n yilliklariga, bizdan keyingi avlodlar esa yangi-yangi asrlarga boshni baland tutib, hazrat Alisher Navoiy bobomizdan qolgan she'riyat deb atalmish ma'naviy xazinani qog'oz kitoblar holida qo'lтиqqa qistirib, ulardan taralayotgan yog'du jilolaridan ruhlanib kirib boramiz. Davrlar evriliishi g'alati, bizlar kitob o'qishga mukkasidan ketgan 80-90-yillarda, ota-onalarimizga bobo, buvilarimiz "Ko'r kitob o'qima, miyang suyulib ketadi" - deb tanbeh berishgan. Bugungi yoshlarga kitob o'qishni gapirsang, ensasi qotadi. Ammo biz bu o'rinda yoshlarni mutlaqo ayblamoqchi emasmiz, agar jamiyatda bilim-ma'rifat, adabiyot qadr-qimmat topsa, albatte, aziz bolalarimiz kitobga qaytishlariga ishonamiz. Bugun kitoblarni chop etish, ularni tarqatish tizimini takomillashtirish va eng muhimi, kitob chiqarish va kitobxonlikning davlat siyosati darajasiga ko'tarilayotganidan quvonishimiz kerak.

ADABIYOTLAR.

1. Shermatova, N. M. (2023, January). Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda qo 'llanilishi. In international scientific and practical conference "the time of scientific progress" (Vol. 2, No. 1, pp. 107-113).
2. Шерматова, Н. М., & Мукимова, З. З. (2021). Интеллектуальная культуро-важный фактор образовательного процесса. Экономика и социум, (4-2 (83)), 723-726.
3. Shermatova, X. M., & Maxammadjonov, J. (2023). Fan va ta'lim rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 788-792.
4. Шерматова, Н. М., & Орифжонова, М. О. (2022). Использование информационных технологий в преподавании естественных наук. Ilm-zakovatimiz-senga, ona-Vatan, 1, 103-104.
5. Mirzayevna, S. X. (2023). Ommaviy axborot vositalarining inson psixikasiga ta'siri. Scientific Impulse, 1(11), 577-580.
6. Mirzayevna, S. X. (2023). Axborot texnologiyalari va uning inson psixikasiga ta'siri. Scientific Impulse, 1(11), 581-584.

7. Shermatova, Н.М. & Sherqo'ziyeva, Z.F. (2023). Ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik qarashlari. Zamonaviy fan va ta'lim yangiliklari, 1(5), 12-16.
8. Shermatova, Н.М. & Muhammadjonova, О'.В. (2023). Ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik va psixologik xususiyatlari. Zamonaviy fan va ta'lim yangiliklari, 1(5), 17-21.
9. Шерматова Х.М. (2023). Цифровизация образования: положительные и отрицательные стороны. Новые технологии в учебном процессе и производстве, 752-753.
10. Sidikjonovna, I. D. (2023). Types of Threats to the Security of the Economic Information System. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(6), 565–568. Retrieved from <http://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/384>
11. Ergashova, G. & Aldashev, I. (2023) Zamonaviy axborot texnologiyalarining inson hayotidagi o'rni. Научный Фокус, 1(7), 777-779.